






## 2020- yilning yanvar-avgust oylari uchun Qashqadaryo viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-avgust oylarida Qashqadaryo viloyatida jami **3176,4** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **99,2 %** ni tashkil etdi.

### Qurilish ishlari hajmining tarkibi


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.



Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo`lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo`linadi.

**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

2020- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 3349 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 271 taga oshdi.




Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **6,3 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **67,4 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **27,8 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **8,2 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **9,2 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **24,4 %**) o'sishidir.



**Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)**


	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.09.2019-yil	01.09.2020-yil	
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>2997</b>	<b>3225</b>	<b>107,6</b>
<i>shaharlar:</i>			
<b>Qarshi</b>	769	828	107,7
<b>Shahrisabz</b>	128	133	103,9
<i>tumanlar:</i>			
<b>G'uzor</b>	134	147	109,7
<b>Dehqonobod</b>	131	145	110,7
<b>Qamashi</b>	166	178	107,2
<b>Qarshi</b>	350	371	106,0
<b>Koson</b>	249	269	108,0
<b>Kitob</b>	122	130	106,5
<b>Mirishkor</b>	73	82	112,3
<b>Muborak</b>	188	189	100,5
<b>Nishon</b>	120	117	97,5
<b>Kasbi</b>	128	146	114,1
<b>Chiroqchi</b>	169	196	116,0
<b>Shahrisabz</b>	115	114	99,1
<b>Yakkabog'</b>	155	180	116,1

**Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalari soni,  
01.09.2020- yil holatiga ko'ra (ulushi, % da)**



**Ma'lumot uchun:** viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Qarshi sh. (25,7 %), Qarshi (11,5 %) va Chiroqchi (6,1 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **399,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **73,8 %** ga ko'p bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **4,5 %** punktga kamayib, **12,6 %** ni tashkil etdi.


2020- yilning yanvar-avgust oylarida yirik qurilish tashkilotlari  
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi

**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qarshi shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **15,9 %** i yoki 2019- yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan **109,2 %**), G'uzor (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **20,7 %** i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **5,1marta**), va Koson tumanlari (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **20,8 %** i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **27,4 %** ) ga to'g'ri keldi.



## Qurilish ishlarining umumiylajmi hajmida kichik korxona va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning yanvar-avgust oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **64,0 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-iyul oylari ko'rsatkichiga nisbatan **3,1 %** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **105,1 %** ni tashkil etgan holda **2032,6 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi.



Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **23,4 %** ni tashkil etdi yoki **744,5 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **102,4 %** ni tashkil etdi

**Qurilish ishlarining umumi hajmida  
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **166,8** mlrd. so'm yoki Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **3009,7** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **5,3 %** va **94,7 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar  
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





**Hududlar kesimida qurilish ishlari.  
(2020-yil yanvar- avgust oylarida)**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O‘sish sur‘ati, % da	Jami qurilish ishlari hajmida hududlarning ulushi % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>3176,4</b>	<b>99,2</b>	<b>100,0</b>
<i>shaharlari:</i>			
<b>Qarshi</b>	<b>772,3</b>	<b>105,7</b>	<b>24,3</b>
<b>Shahrisabz</b>	<b>176,8</b>	<b>109,2</b>	<b>5,6</b>
<i>tumanlari:</i>			
<b>G’uzor</b>	<b>369,4</b>	<b>96,8</b>	<b>11,6</b>
<b>Dehqonobod</b>	<b>75,3</b>	<b>100,8</b>	<b>2,4</b>
<b>Qamashi</b>	<b>98,3</b>	<b>97,7</b>	<b>3,1</b>
<b>Qarshi</b>	<b>303,3</b>	<b>99,2</b>	<b>9,5</b>
<b>Koson</b>	<b>275,1</b>	<b>77,4</b>	<b>8,7</b>
<b>Kitob</b>	<b>222,7</b>	<b>104,0</b>	<b>7,0</b>
<b>Mirishkor</b>	<b>76,9</b>	<b>102,9</b>	<b>2,4</b>
<b>Muborak</b>	<b>140,7</b>	<b>103,7</b>	<b>4,4</b>
<b>Nishon</b>	<b>127,4</b>	<b>100,2</b>	<b>4,0</b>
<b>Kasbi</b>	<b>82,6</b>	<b>95,0</b>	<b>2,6</b>
<b>Chiroqchi</b>	<b>237,1</b>	<b>100,0</b>	<b>7,5</b>
<b>Shahrisabz</b>	<b>83,5</b>	<b>102,2</b>	<b>2,6</b>
<b>Yakkabog’</b>	<b>135,0</b>	<b>99,4</b>	<b>4,3</b>

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2020- yil yanvar-avgust

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 62,3 % i yoki **1978,8** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

62,3 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **191,1** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 9,7 % ni tashkil etdi

9,7 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1111,3** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 56,2 % ni tashkil etdi.


56,2 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 676,3 mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 34,1 % ni tashkil etdi.

34,1%


## Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

*ulushi, % da*



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi

2020- yilning yanvar-avgust oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari, mlrd. so'm.



Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi  
Tel.: 75 221-32-47